

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi



**F. Rashidova**

2026-yil 26-yanvar

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining  
1-son bayoni**

Toshkent shahri

2026-yil 26-yanvar

**Raislik qiluvchi:** – **F. Rashidova**, Jamoatchilik kengashi raisi

**Qatnashdilar:** – Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziriligining tegishli bo‘lim boshliqlari, Jamoatchilik kengashi kotibi

**KUN TARTIBI:**

- I.** Jamoatchilik kengashining 2025-yil yillik faoliyati sarhisobi;
- II.** Jamoatchilik kengashi nizomi va uning tarkibiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan tanishtirish;
- III.** Jamoatchilik kengashining kelgusi faoliyati bo‘yicha ish rejasi muhokamasi;
- IV.** Jamoatchilik kengashi a‘zolarining vazifalarini belgilash.

---

*(Rashidova, Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Rashidova)*

**I. Jamoatchilik kengashining 2025-yil yillik faoliyati sarhisobi.**

Kun tartibiga ko‘ra, Jamoatchilik kengashi raisi **Feruza Rashidova** kengashning o‘tgan 2025-yil davomidagi faoliyati haqida ma‘lumot berdi.

Hisobot davrida Jamoatchilik kengashi tomonidan **oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro reytinglarda o‘rnini yaxshilash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish** hamda **ta‘lim sifatini yuksaltirishga** qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirildi. Xususan,

**7 ta xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya va seminar**, shuningdek, **5 ta kengash yig'ilishi** tashkil etildi. Jumladan:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Jamoatchilik kengashi tashabbusi bilan "QS: Academic Reputation (40%)", "Ilmiy mukammallik uchun sun'iy intellekt: tadqiqot, yozuv va pedagogika", "QS: Yashil iqtisodiyot va xalqaro malakali kadrlar bilan kelajak sari", "Oliy ta'limda mikrosertifikatlarning boshqarish tizimi", "Xorijiy tillarni o'qitish va amaliy tilshunoslik", "Global raqobatbardoshlik uchun oliy ta'lim siyosati va institutsional islohotlar" mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyalar, shuningdek, "Oliy ta'lim rivojini cheklovchi omillar" mavzusida seminar o'tkazildi.

**2025-yil 17-yanvar** kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida Jamoatchilik kengashi a'zolari va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirokida "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni loyihasi hamda sohada mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar muhokama qilindi.

Jamoatchilik kengashi tomonidan tizimni yanada takomillashtirish maqsadida konstruktiv takliflarni yig'ish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali so'rovnomalar o'tkazildi.

**2025-yil 4-mart** kuni Jamoatchilik kengashi tomonidan Sirdaryo tuman politexnikumining umumiy faoliyati, ta'lim jarayonlari, o'qituvchi va o'quvchilarning muvaffaqiyatlari, infratuzilma va innovatsion loyihalar ijrosi o'rganildi. O'rganish jarayonida politexnikum rahbariyati, o'qituvchilar bilan individual suhbatlar o'tkazildi.

Shuningdek, hududdagi oliy va kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazilib, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqaro reytinglarda ta'lim muassasalarining o'rnini oshirish, kasbiy ta'lim muassasalarining xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik darajasi va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar yuzasidan fikr almashildi va tavsiyalar berildi.

**2025-yil 15-mart** kuni Jizzax shahridagi Jizzax politexnika institutida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining navbatdagi Hay'at yig'ilishi o'tkazildi. Unda Jamoatchilik kengashi a'zolari ham ishtirok etdi.

**2025-yil 28-mart** kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi yuzasidan iqtisodiy o'qish tashkil etildi. Seminar shaklida o'tkazilgan anjumanda vazirlik markaziy apparati, tizim tashkiloti xodimlari, shuningdek, Jamoatchilik kengashi raisi Feruza Rashidova o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

**2025-yil 28-may** kuni Jizzax davlat pedagogika universitetida kengash tashabbusi bilan viloyat miqyosida 150 nafardan ortiq faollar ishtirokida seminar o'tkazildi. Unda nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, fuqarolik

jamiyati faollari va oliy ta'lim muassasalari rahbarlari qatnashib, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, oshkoralikni ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish masalalari keng muhokama qilindi.

**2025-yil 14-oktyabr** kuni Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha ijtimoiy loyiha tanloviga kelib tushgan hujjatlarni ko'rib chiqish va baholashga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilish davomida kengash a'zolari tomonidan 13 ta loyiha 20 ta mezon asosida baholash natijalariga ko'ra eng yuqori ball olgan **"Istiqbol" tadqiqot markazining** "Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish" (1103 ball) loyihasini moliyalashtirish tavsiya etildi.

**2025-yil 1-dekabr** kuni Fuqarolik jamiyati haftaligi doirasida Jamoatchilik kengashlari forumi bo'lib o'tdi. Unda "Yuksalish" umummilliy harakati tomonidan bir qator yo'nalishlarda faol faoliyat olib borayotgan kengashlar "Eng faol jamoatchilik kengashi" nominatsiyasi bilan taqdirlandi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi ham ushbu nufuzli mukofotga munosib deb topildi.

**2025-yil 22-dekabr** kuni Toshkent shahridagi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida "Ta'lim tizimida inklyuziv muhit: nogironligi bor shaxslar uchun imkoniyatlar va mavjud to'siqlar" mavzusida jamoatchilik eshituvi bo'lib o'tdi. Tadbirda vazirlik mas'ul xodimlari, Jamoatchilik kengashi a'zolari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari vakillari, talabalar hamda ommaviy axborot vositalari ishtirok etdi.

**"Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi"** hamda **"IT-ta'lim uyushmasi"** nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida o'zaro kelishuv va hamkorlik to'g'risida **memorandum** imzolandi. Mazkur hamkorlik respublikamizda IT sohasini yanada ommalashtirish, raqamli ta'lim ekotizimini rivojlantirish, yoshlarni zamonaviy IT kasblariga tayyorlash hamda sohada xizmatlar eksportini oshirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda kengash a'zolari hamda OAV vakillari uchun Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va Qoraqalpoq davlat universitetiga **press-turlar** tashkil etildi.

Press-turlar davomida yangi qurilayotgan va foydalanishga topshirilayotgan talabalar turar joylari, qurilish-arxitektura yo'nalishidagi muhandislik loyihalari, shuningdek, dual ta'lim tizimining joriy etilishi o'rganildi. Aniqlangan muammolar yuzasidan mas'ullarga tegishli tavsiyalar berildi.

## **II. Jamoatchilik kengashining kelgusi faoliyati bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash.**

Kengash tomonidan **2026-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan "Ish reja" loyihasi** muhokama qilindi. Yig'ilish davomida oliy ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirining **2025-yil 16-dekabr**dagi **509-son buyrug'i** qabul qilingani, mazkur hujjatda kengashlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun barcha zarur tashkiliy va me'yoriy talablar belgilab berilgani qayd etildi.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish jarayonida turli savollar va tushunmovchiliklar yuzaga kelayotgani inobatga olinib, mazkur masalalarga aniqlik kiritish maqsadida **seminar o'tkazish zarurati** ta'kidlandi.

Bundan tashqari, jamoatchilik kengashlari faoliyatini tizimli o'rganish maqsadga muvofiq ekani qayd etildi. Bildirilgan taklif ya mulohazalar asosida **Ish reja loyihasiga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish** zarurligi ko'rsatib o'tildi.

### **III. Jamoatchilik kengashi nizomi va uning tarkibiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan tanishtirish.**

Jamoatchilik kengashining so'nggi yig'ilishlari tahlili shuni ko'rsatdiki, kengash a'zolarining bir qismi uning majlislarida muntazam qatnashmayapti, ko'pchilik esa hech bir asosli sababsiz yig'ilishlarni o'tkazib yubormoqda. Mazkur holat kengash faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani inobatga olinib, ayrim a'zolar roziligi asosida tarkibdan chiqarilgani ma'lum qilindi.

Shu bilan birga, kengash tarkibiga ta'lim sohasiga befarq bo'lmagan, faol, kengash ishida muntazam va amaliy ko'mak bera oladigan jonkuyar hamda ijtimoiy faol fuqarolar bilan to'ldirilgani ta'kidlanib, ular jamoaga tanishtirildi. Bu o'zgarishlar kengashning haqiqiy jamoatchilik minbariga aylanishi, ta'lim jarayoniga doir dolzarb masalalarni hal etishda keng qatlam vakillarining faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilishi bildirildi.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining **2025-yil 16-dekabr**dagi **509-son buyrug'i** bilan "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom" qayta ko'rib chiqildi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 4-iyul**dagi **PQ-3837-son qarori** bilan tasdiqlangan "Davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizom"da belgilangan asosiy talablar bilan to'liq uyg'unlashtirildi.

Xususan, yangilangan nizomga kengashning **asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari**, shuningdek, **tarkibini shakllantirish** hamda **faoliyatini tashkil etish tartibiga oid muhim bandlar** kiritildi. Natijada, kengashning to'laqonli, shaffof va samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratildi, bu esa uning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

### **IV. Jamoatchilik kengashi a'zolarining vazifalarini belgilash.**

Kengash a'zolari o'z faoliyati samaradorligini yanada oshirish masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashib, tizimda mavjud muammolarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish hamda ularga amaliy yechimlar

ishlab chiqish zarurligini ta'kidladilar. Shu maqsadda oliy va kasbiy ta'lim sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, muammolarni ochiq muhokama qilish hamda konstruktiv takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladigan **jamoatchilik eshituvlarini** muntazam tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Ta'kidlanganidek, jamoatchilik eshituvlari ta'lim tizimidagi dolzarb masalalarni chuqur tahlil qilish, manfaatdor tomonlarning fikrini inobatga olish va tizimli yechimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan 2026-yil davomida quyidagi dolzarb mavzular bo'yicha jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish taklif etildi:

- "Oliy va kasbiy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning maqomi";

- "Kredit-modul tizimining amaliyotdagi samaradorligi";

- "Ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzilish masalasi";

- "Nodavlat oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati nazorati";

- "Oliy ta'lim va mahalla o'rtasidagi hamkorlik";

- "Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari";

- "Universitet – ish beruvchi sifatida: professor-o'qituvchilar bilan mehnat munosabatlari";

- "Vazirlikda ishlab chiqilayotgan qonun hujjatlarini Jamoatchilik kengashi tomonidan ko'rib chiqish mexanizmlari";

- "Fuqarolar murojaatlari bilan vazirlik qanday ishlayapti?".

Mazkur tashabbuslar ta'lim tizimida islohotlarni jadallashtirish, manfaatdor tomonlar ishtirokini kengaytirish va qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik rolini kuchaytirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholandi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Jamoatchilik kengashining **2025-yil davomida amalga oshirgan faoliyati to'g'risidagi hisobot** hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining **2026-yil 2-fevraldagi 37-son buyrug'i** bilan Kengash tarkibiga kiritilgan o'zgartirish **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**


2. Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblangan **Axborot xizmatlari bo'limi** (N. Abduqunduzova):

yig'ilishda taklif etilgan mavzulardan kelib chiqib, **har ikki oyda bir marta jamoatchilik eshituvini tashkil etsin.** Bunda, jamoatchilik eshituvlarida vazirlikning mavzu yo'nalishiga mos mutaxassislari hamda rahbariyatdan mas'ul vakillarining ishtiroki ta'minlanishi e'tiborga olinsin;

oliy ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tizimli va samarali yo'lga qo'yish, ularning vakolatlarini amalda kuchaytirish hamda jamoatchilik nazoratini yanada rivojlantirish maqsadida mazkur yo'nalishda **seminar tashkil etish chorasini ko'rsin;**

yig'ilishda Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasiga bildirilgan takliflarni inobatga olib, **3 kun muddatda** Ish-rejani tasdiqlatishga kiritish.

Kengash kotibi



N. Abduqunduzova